



## INFORMATION ON THE BIOLOGY OF ACRIDOTHERES TRISTIS

*Boymurad N. Doniyorov*

*Senior Lecturer*

*Bukhara State University*

*Bukhara, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** myna, egg, chick, magpie, rook, hen, grasshopper.

**Received:** 01.10.22

**Accepted:** 03.10.22

**Published:** 05.10.22

**Abstract:** The relevance of the topic in the article, the distribution of *Acridotheres tristis*, mating characteristics and its study, the duration of the research and the methods used in the work, the number of nests found, nesting places, mating places and their number, mating, breeding behavioral responses, number and location of nests, nesting interspecific relationships, nesting duration and use, nest shape, dimensions, nest location, nest construction, nest components and morphometric dimensions, egg laying and duration and brood care during incubation, changes in the egg, hatching, chick size, growth and development, reproduction images, relationship of the new generation to the nest, information about the night, relations with historical monuments, biological characteristics such as nutrition and food types and their importance were studied.

---

## ACRIDOTHERES TRISTISNING BIOLOGIYASIGA DOIR MA'LUMOTLAR

*Boymurod N. Doniyorov*

*katta o'qituvchi*

*Buxoro davlat universiteti*

*Buxoro, O'zbekiston*

---

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** mayna, tuxum, jo'ja, zag'izg'on, go'ng qarg'a, tovuq, chigirtka.

**Annotatsiya:** Maqolada mavzuning dolzarbligi, *Acridotheres tristis*ning tarqalishi, uchrash xususiyatlari va uning o'rganilganligi, o'tkazilgan tadqiqotlarning muddati va ishni bajarishda foydalanilgan usullar, topilgan uyalar soni, uyalash joylari, uchrash joylari va

soni, sayrashi, juft hosil qilishi kabi ko'payish bilan bog'liq xulqiy reaksiyalari, uyalar soni va joylashishi, uyalashda turlararo munosabatlar, uyalash muddati va undan foydalanish, uya shakli, o'lchamlari, uyasining joylashishi, uya qurishi, uyaning tarkibiy qismlari va morfometrik o'lchamlari, tuxum qo'yishi va muddati hamda ularni isitish jarayonidagi nasl g'amxo'rliqi, tuxumda bo'ladigan o'zgarishlar, jo'ja ochishi, jo'jalarining o'lchamlari, o'sishi va rivojlanishi, ko'payishga doir tasvirlar, yangi avlodning uyasi bilan bog'liqligi, tunashiga oid ma'lumotlar, tarixiy yodgorliklar bilan munosabati, oziqlanishi va oziqa xillari kabi biologik xususiyatlari hamda ahamiyati o'rganilgan.

---

## ИНФОРМАЦИЯ О БИОЛОГИИ ACRIDOTHERES TRISTIS

*Боймурад Н. Дониеров*

*Старший преподаватель*

*Бухарский государственный университет*

*Бухара, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** майна, яйцо, птенец, сорока, грач, курица, кузнечик.

**Аннотация:** В статье раскрывается актуальность темы, распространение *Acridotheres tristis*, особенности спаривания и его изучение, продолжительность исследований и использованные в работе методы, количество найденных гнезд, места гнездования, места спаривания и их количество, размножение, спаривание и др. поведенческие реакции, количество и расположение гнезд, гнездовые межвидовые отношения, продолжительность гнездования и его использование, форма гнезда, размеры, расположение гнезда, конструкция гнезда, компоненты гнезда и морфометрические размеры, яйцекладка и продолжительность и их выводок уход во время инкубации, изменения в яйце, вылупление, размер цыпленка, рост и развитие, изображения воспроизводства, отношение нового поколения к гнезду, информация, связанная с ночевкой, связь с историческими памятниками, биологические характеристики, такие как питание и типы пищи, и их значение было изучено.

### KIRISH

Buxoro shahri sharoitida oddiy maynaning bioekologiyasiga oid ilmiy tadqiqot va kuzatishlarimizni 2007-2022 yillarda olib bordik. Shunga asosan bu qushni Buxoro shahridagi barcha muhitlarda yil davomida uchrashi, yuksak darajada moslashganligi uchun soni va ahamiyati jihatidan ekotizmda o'ziga xos o'rinni egallashi hamda yuqori zichlikka ega bo'lishi guvohi bo'ldik. Qolaversa, shahar hududida sonining ko'pligi, serharakatligi, tajovuskorligi uni boshqa turlardan ajratib turishi bilan kishi e'tiborini o'ziga tortadi.

### ASOSIY QISM

E. Sh. Shernazarov ma'lumotiga ko'ra 1976 yilning qishida Toshkent aviatsiya zavodi sexida 4000 ta, 1980 yil chinni zavodi sexida 5000 ta atrofida maynalarning tunashi bizga manbalardan ma'lum. Shahsiy tadqiqotlarimizda mayna kuz va qish fasllarida asosan 5-40 tagacha individdan iborat kichik, ba'zan 200-400 tagacha individdan iborat o'rta va ahyon-ahyonda 2000-3000 tagacha individdan iborat katta guruhlar hosil qilib oziqlanish, bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, tunash, dam olish, raqobatlashish va himoyalani kabi hayotiy jarayonlarni amalga oshirishi aniqlandi. Besh mingtagacha individdan iborat eng katta kolloniyasini 2010 yilning 10 yanvarida oziqlanish jarayonida Buxoro Avtoshohbekat yaqinidagi ko'l atrofi (hozirgi Buxoro madaniy markazi majmuasi)da uchratildi.

Iqlimiy omillarning nomoyon bo'lishiga ko'ra ba'zan dekabr oyida ham juft holdagi va uya qurayotgan mayna oilalarini ko'rish mumkin. Biroq ko'payish bilan bog'liq jiddiy o'zgarishlar fevral oyining boshlarida maynalarning bir holatda juftlarga ajralganligini, ikkinchi bir holatda hali ham 7-15 tagacha individdan iborat guruh bo'lib, o'z arealida nomoyon qiladigan xulqiy reaksiyalarida ko'zga tashlanadi. Mart oyining uchinchi dekadasiga kelib uya qurishga kirishganligini kuzatish mumkin.

Maynalar uyalarini zag'izg'onlarning eski inlariga, ta'mir talab binolardagi teshik-tarqamlarga, himoyalangan karnaklar ichiga, suv quvirlari atrofiga o'ralgan g'illoflar orasiga o'z turiga xos mahorat bilan joylashtiradi. Zag'izg'onlarning eski inlaridan foydalanishda maynaga ko'k kaptar, qumri, cho'l sog'i kabi o'zga turlar va o'z turdoshlari raqobatchi bo'ladi. Uya materialini tanlashda qush atrofda tez va oson topiladigan xom-ashyoga murojat etadi. Jumladan, tut, olma, o'rik, qaroli, olmurut kabi daraxtlarning barglari hamda shoxchalari, oq pilyonka, turli shirinliklarning qadoqlari, qora selofan, iplar, ko'p yillik o'simliklarning tana qismlari, audio kasetalarining lentolari, qo'y, sigir, otlarning jun-qillari, go'ng qarg'a, ko'k kaptar, tovuq kabi qushlarning kontur patlari bunga yorqin misol bo'ladi.

Maynaning ko'payish sikli ancha cho'ziq bo'lib, uning ikkita tuxumli uyasining (17.08.1967) va 10-12 kunlik jo'jali uyasining (02.09.1970) topilishi ham buni isbotlaydi (Baqoyev, 1994).

Mayna 4-6 ta tuxum qo'yadi, tuxumlarining po'chog'i och havorang-ko'kish tusda bo'ladi. Tuxumlar har kuni bittadan yoki kunora qo'yilganligini kuzatish mumkin. Uyalardagi tuxumlarning soni, katta-kichikligi va shakli turlicha bo'ladi. Mayna tuxumlarining morfometriyasi quyidagi 1-jadvalda keltirilgan

*1-jadval*

**Mayna tuxumlarining o'lchamlari (n=9)**

Tuxumlarning o'lchamlari, mm., g				
Uzunligi	Eni	Uchki eni	Tubining eni	Massasi
31,0	22,0	18,5	19,2	8,1
30,6	21,8	18,6	19,8	7,9
31,8	22,0	19,1	20,9	8,4
32,4	22,0	18,8	20,7	8,7
29,6	20,8	15,7	18,7	6,9
29,4	20,8	16,9	19,3	6,8
30,0	21,0	18,4	20,0	7,1
29,3	21,0	18,5	19,0	6,9
29,3	21,0	18,0	18,9	6,9

Tuxum bosish uyaga birinchi tuxum qo'yilishi bilan boshlanadi. Tuxum bosishda urg'ochi jins faolroq bo'ladi. Tuxumlarni urg'ochisi va erkagi 15 kun bosib isitadi. Tuxumidan chiqqan jo'jalarining quloq teshiklari yopiq, ko'zlari ojiz, tanasi pat va parsiz hamda nimjon va zaif bo'ladi.

Rivojlanishning 4-kuni quloq teshiklari, 6-7 kunligida ko'zlari ochiladi va tanasida parpatlarning elimentlari shakllanib, terisining rangi qizildan qora tusga to'qlasha boshlaydi. Maynaning jo'jalari xuddi ko'k kaptar, qumri va musichaning polaponlariga o'xshab tez rivojlanadi va 24 kunda uyasidan uchib chiqadi. Quyida oddiy maynaning ko'payish sikliga oid rasmlar tasvirlanadi



Mayna oilasi



Uya qurayotgan mayna



Mayna jihozlagan zag'izg'on uyasi



Zag'izg'on uyasidagi mayna tuxumlari



36 soatlik mayna jo'jasi va uning tuxumi



Oziq talab qilayotgan mayna jo'jalari



O'n besh kunlik jo'ja



Voyaga yetgan mayna



Ninachi lichinkasini ovlayotgan mayna      Ektoparazitlarga maynaning javob reaksiyasi

### 1-rasm. Oddiy maynaning ko‘payish sikli

Maynaning ko‘payish samaradorligi (n=6) Buxoro shahrida 54,8 % (Xolboyev, 2000) ni, Farg‘ona vodiysi shaharlarida 66,1 % (Sharipov, 1974) ni, tashkil etgan bo‘lsa, Buxoro shahrida (n=3) bu ko‘rsatgich 54,6 % ni tashkil etdi. Bunda tuxumlar chiqiti 45,5 % ni tashkil etdi (4 ta tuxum kushandasi-zag‘izg‘on tomonidan, 1 ta tuxum tadqiqot jarayonida shikastlanish oqibatida nobud bo‘ldi). Mayna asosan chigirtkalar bilan oziqlanadi. Bir juft mayna yiliga 150 000 taga yaqin chigirtkalarni qirishini (Simonov,1977; Bogdanov, 1983), ot, sigir va qo‘ylar tanasi va atrofidagi pashsha, so‘na va boshqa parazitlarni terib yeyishini, kuz va qish fasllarida axlatxonalarda va shahar hududidagi yo‘l chekkalarida turli chiqindilar bilan oziqlanishi hisobidan sanitarlik vazifasini bajarishini inobatga oladigan bo‘lsak, mayna juda ham foydali qush hisoblanadi. Lekin, maynaning shahar sharoitida yuqori zichlikka egaligini, antisanitariya bilan bog‘liq muammolarning kelib chiqishida ishtirok etishini, tungi koloniyalarida kuchli shovqinga sababchi bo‘lishini hisobga olgan holda, uning sonini boshqarish tadbirlarini amalga oshirish lozim.

### XULOSA

Mayna biologiyasi, ekologiyasi va etalogiyasini o‘rganib shuni aytish mumkinki, tabiiy landshaftlarning antropogen landshaftlar bilan almashinishi ham mayna sonini oshishiga sabab bo‘lmoqda. Maynaning sonini shahar sharoitida boshqarish uchun ko‘payish vaqti tuxumlar uyaga qo‘yilgandan so‘ng, tuxumlarni minutiga 3-5 ming marta tezlikda aylanadigan sentrafugada aylantirib (ishlov berib) o‘z o‘rniga qo‘yish, maynaning kushandasi hisoblangan zag‘izg‘on va bo‘ktargi kabi yirtqichlarga zarar yetkazmaslik, shahar hududidagi axlatxonalarda chiqindilarning uzoq vaqt turib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik, binolarni o‘z vaqtida ta‘mirlash, karnaklarni himoyalash, shahardagi eski qurib ketgan daraxtlarni nazorat qilish, video va audio tasmalaridan foydalanish, umuman olganda maynani shaharga jalb etuvchi omillarni bartaraf etish kerak.

Buning uchun aholining madaniy-ekologik saviyasini rivojlantirish zarur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Богданов О. П. “Ўзбекистон ҳайвонлари”. - Тошкент, “Ўқитувчи”, 1983.-Б.188-189.
2. Дониёров Б. Н. Мусича(*Streptopelia senegalensis* Linnaeus)нинг биологияси ва экологиясига доир маълумотлар (Бухоро вилояти мисолида)//Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро,2015.№3.Б.49-52.
3. Дониёров Б. Н. Қушларнинг қишлоқ ва ўрмон хўжалигидаги ўрни//Орол денгизи минтақасида юзага келган экологик офатнинг атроф-табiiй муҳитга таъсири Республика илмий-амалий конференцияси материаллари.-Бухоро,2015.-Б.120-121.
4. Дониёров Б. Н. Ёввойи қоя кўк каптарлари-хонакилаштирилган каптар зотларининг уруғбоши//Мақтабда биология.-Тошкент,2015.№1.-Б.22-23.
5. Дониёров Б. Н. Кўк каптар(*Columba livia* Gmelin) биологиясига доир маълумотлар (Бухоро вилояти мисолида)//Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро,2016.№2.Б.38-42.
6. Дониёров Б. Н. Бухорода учровчи қушларнинг шаҳардаги миллий-маданий ёдгорликларга таъсири//Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро,2016.№4.Б.42-46.
7. Дониёров Б. Н. Бухоро шаҳри шароитида уя қилувчи қушлар//Актуальные научные исследования в современном мире Сборник научных трудов.- Переяслав-Хмельницкий, 2016.№3.-С.10-18.
8. Дониёров Б. Н. Зағизгон (*Pica pica bactriana* ВР.) нинг биологияси (Бухоро вилояти мисолида)//Актуальные научные исследования в современном мире Сборник научных трудов.-Переяслав-Хмельницкий, 2016.№4.-С.9-13.
9. Дониёров Б. Н. Чўл соғи (*Otus brucei*) нинг биологияси (Бухоро вилояти мисолида)//Вопросы охраны птиц Узбекистана материалы республиканской конференции общества охраны птиц Узбекистана.-Ташкент,2017.С.39-42.
10. Дониёров Б. Н. Бухоро шаҳридаги миллий-маданий ёдгорликларни экотуризм ресурслари сифатида шаҳарда учровчи қушларнинг таъсиридан сақлаш//Халқаро “Ипак ва зираворлар” халқаро туризм фестивали “Бухорода туристик эркин иқтисодий ҳудудни яратиш имкониятлари ва ривожланиш истиқболлари” мавзусидаги илмий-амалий конференция мақолалар тўплами.-Бухоро,2018.-Б.313-318.
11. Дониёров Б. Н. Туризм соҳасида аҳамиятли Бухоро вилояти агроценозларидаги манзарали ва сайроқи қушлар//«Ипак ва зираворлар» фестивали даврида 2018 йил 26 май куни Бухоро шаҳрида «Бухоро вилоятининг туристик ва инвестицион салоҳияти» мавзусида ўтказилган халқаро илмий-амалий конференция тезислар тўплами.-

Бухоро,2018.-Б.169-173.

12. Дониёров Б. Н. Бухоро воҳасида қишлоқ қалдирғочи (*Hirundo rustica rustica* L.)нинг биологияси// Хоразм маъмун академияси ахборотномаси.-Хива, 2020.№1.Б.25-29.

13. Doniyorov B. N. Buxoro viloyatida ko'k kaplar (*Columba livia neglecta* Hume, 1873) ning biologiyasiga doir materiallar//Хоразм маъмун академияси ахборотномаси.-Хива, 2021.№8.Б.17-21.

14. Doniyorov B. N. Materials on the biology of *Streptopelia decaocto* Friv. 1838 In Bukhara region//ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal, Vol. 11, Issue 2, February 2021

15. Симонов Б. А. “Певчие и декоративные птицы”. Т., “Узбекистан”, 1977.-С. 32, 80-84.

16. Холбоев Ф. Р. “Бухоро шаҳри қушларининг фаунаси, жамоаси ва экологияси”//Биология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация. Бухоро, 2000.-Б.147-149.

17. <https://teacode.com/online/udc/59/598.294.html>